



**“TARIXI TURKISTON” ASARINING QO’QON XONLIGI
TARIXIDA TUTGAN O’RNI**

Tosheva Muhayyo Hamid qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedrası

Tarix (mintaqa va mamlakatlar bo’yicha) yo’nalishi I kurs magistri

Ilmiy rahbar: PhD, Ikromov Sh.I.

Annotatsiya: *“Tarixi Turkiston” asari XIX asrning ikkinchi yarmida Qo’qon xonligi tarixiga oid muhim manbalardan biri bo’lib, uning muallifi Ahmad Donish yoki unga yaqin davr tarixchilari tomonidan yozilgan deb taxmin qilinadi. Asarda Qo’qon xonligi hukmdorlarining nasabnomasi, ichki siyosiy jarayonlar, harbiy yurishlar, ichki va tashqi ziddiyatlar, shuningdek, xalq turmushi va ijtimoiy-siyosiy tuzilish haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. “Tarixi Turkiston” Qo’qon xonligi tarixini o’rganishda ishonchli manba sifatida xizmat qiladi, chunki unda xonlikning qudrat davri va tanazzul bosqichlari haqida bevosita guvoh bo’lgan muallifning kuzatuvlari aks etgan. Asar Qo’qon xonligi tarixini o’rganishda boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish, mintaqaning siyosiy hayotini yanada teran tushunish va tarixiy jarayonlarni ilmiy tahlil etishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so’zlar: *Tarixi Turkiston, Qo’qon xonligi, tarixiy manba, siyosiy tarix, ichki siyosat, harbiy yurishlar, tarixiy jarayonlar, Markaziy Osiyo tarixi, XIX asr, tarixshunoslik.*

“...Ilmi tavorix (tarix ilmi) ning foyidamandlig’ig’a tamomi firqa muttafiq urroydurlar. Aksar tavoyifi umam, balki, tamomi ahli olam bu ilmni amalga qo’yub, gumoshtagonlarindin rivoyat va hikoyatlar qilib, oning o’zlarig’a dalil qiladurlar. Xususan, tavoyifi atrok (turklar) va o’zbeklar utgan urug’ va qabilalarni yodda tutmoqqa g’oyat jadduahd qiladurlar. Ammo bizning Turkiston sartiylari tarixga ko’p ahamiyat bermay, ikki-uch otadin ilgari utgan salaflarin va alarni zamonlaridagi hikoyat va vokeotlarini aslo bilmaydurlar. Binobarin, kaminai hech



madon (nodon) ajz va qusurimni iqror va e'tirof aylab; sahva va qusuri bulsa, xonandalarini avf qalami ilan tas'hih va durust qilmaqlarini rijo va iltimos umidida Farg'ona va Ho'qand xonlari va ularning ahvolotlarini ba'zi tavorixlardan va kuhansol (qariya) odamlardan va ham xuddi kamina uzim eshitgan va ko'rganlarimni sodda va rasmiy chig'atoy turk tilida musavvada (qoralama) aylab «Tarixi Turkiston» nom ko'yub nashrig'a shuru' qildim. Alloh taolo muvaffak aylab itmomi (yakuni)ga yetkurmoqni muyassar qilg'ay, tokim turkistonlik birodarlarimiz Farg'ona xonlari, ularning zamonlari va voqeotlari va Rusiya davlatig'a tobe' bo'lg'ondin ellik yillik muddatda bo'lg'on ahvol va atvorimiz (xulkimiz)ning kanday tag'ayyur [uzgargan] va tabdil va taraqqiysig'a mulohaza aylab, na'm ul-inqilob natijasig'a ibrat ko'zi bilan boqsalar ekan deb, va billohi tavfiq"¹.

«Tarixiy meros» turkumida nishona sifatida kitobxon e'tiboriga havola etilayotgan «Turkiston tarixi» muallifi Mirzo Olim Maxdum hoji uzoq yillar «Turkiston viloyati gazetasi»da muharrirlik qilgan mahalliy ziyolilardan bo'lib, uning tarjimayi holi g'atsh va batafsil ma'lum emas. Uning «Tarixi Turkiston» asarining birinchi qismi 1908-1915 yillar davomida uzi boshchilik qilayotgan gazetada bosilib chiqqan va 1915 yili Rossiya imperiyasi tomonidan Toshkentning bosib olinishining 50 yillik sanasi munosabati bilan alohida kitob ro'ida Turkiston genaral-gubernatori harbiy okrugi bosmaxonasida chop etilgan². Biroq, asarda ko'pgina texnik xatolar, harflarning xato terilishi ko'zga tashlanadi.

Asar Turkiston xonlari tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda o'lkaning keyingi 50 yil davomida yuz bergan o'zgarishlari mahalliy muallif tomonidan tahlil qilinadi. U 1915 yili «.. musulmoniya asri ilan ellik yil miyonasida farq va tafovutini andin bayon aylab, tarixning birinchi jildini tamom qildim», deb asarining ikkinchi jildini boshlaganini ma'lum qiladi. Mazkur asarning Qo'qon tarixchilari asarlaridan farqi shundaki, muallif unda Qo'qon xonligi tarixidan so'ng Buxoro amirligi va Xorazm davlati tarixini qisqacha bayon qiladi. Muallif Rossiya imperiyasining Turkiston

¹ Mirzo Olim Mahdum Hoji "Tarixi Turkiston" 2009 "Yangi asr avlodi" 165-bet.

² Mazkur kitobning to'rt nusxasi O'z FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi (№№ 247, 5751, 5752, 9551). Biroq ularning saqlanish holati bir xil emas.



shahriga bostirib kirishi va uni o'z tasarrufiga kiritishini quyidagi mazmunda tahlil qiladi:

“Turkiston shahrig‘a Mirzo Davlat tojikni hokim qilib ketgandin keyin Mirzo Davlat kibr va g‘urur ilan sarhadda qarab va poylab turgan ulug‘ Rossiya davlatini ko‘zga ilmay va atrofidagi qozoqiylarning g‘arib va bechoralik va davlatxohliklarini andisha va mulohaza qilmay, besh kunlik hukumatga mag‘rur bo‘lub, bir necha qaroqchilarni Turkistong‘a yig‘ib, elatiyalarni talon-toroj va betinch qila bopshabdur. Mirzo Davlatning bul tariqa yomon fe‘li va zulmidin elatiya xalqi va biylari tang bo‘lub qochar va noilojlikdin oning itoatidin chiqib, Rossiya hukumatig‘a tobe bo‘lmakni ixtiyor qilibdur. Biloxir, ul zolimning zulmi va sharri kasofatidin majmui elatiya va uzbekiya va Turkiston atrofidagi qozoqiylar Rossiyalarg‘a borib aytibdurlarkim, alhol Turkiston shahri ichidagi boshqa hamma tavobiotlari Rossiyaning tahti tasarrufig‘a kirgandur. Movaraunnahr xonlari, chunonchi, Buxoro va Xo‘qand xonlari orasida adovat va xusumat paydo bo‘lub, amiri Buxoro Farg‘ona mamlakatini tahti tasarrufig‘a olmoq muddaosidadur. Agar Buxoro va Farg‘ona bir mamlakat bo‘lub qolsa, ul holda Buxoro mahkumi ikki poytaxtni ihota qilib, to Tibet va Qandahor tog‘laridin tortib, lashkar jam‘ qilgudek bo‘lsa, ish og‘ir bo‘ladur. Alhol olarning oralarida nizo va beittifoqlik paydo bo‘lub turgan holda ishni tezlik va osonlik ilan saranjom qiladurmiz, xususan Sirdaryoning kema o‘tadurgon joylari Rossiya qo‘lig‘a kirgan vaqtda ikki mamlakat, ya‘ni Buxoro va Xo‘qand va Toshkand orasi band bo‘lub, Movaraunnahr mamlakati osonlik ilan qo‘lga kiradur”. Mirzo Olim Toshkand shahrining bosib olinishini ham O‘rta Osiyodagi ikki mamlakat orasidagi qarama-qarshilik va ichki nizolardan deb biladi: “Rossiyalar Toshkandni muxosara qilib turgan vaqtda ikki hamsoya musulmoniya mamlakatlarining podshohlari Rossiyalarning to‘p ovozi yetadurg‘on yaqin masofada mamlakatlari g‘a istilo kilib kelib, urush qilib turg‘on holda, anga ahamiyat bermay, bir-birlari ilan urush-talash qilishib, viloyatni barbod berdilar, ya‘ni Rossiyalar himoyatsiz qolgan Toshkand shahrini bir necha kun qamab, oxiri 1865 yil 15 iyunda subh vaqtda Kamolon darvozasidin kirib fath qildilar”.



Mirzo Olim ziyoli kishi sifatida mustamlakachilik siyosati va uning oqibatalarini tahlil qilmoqchi bo'ladi. Bir tomondan «Tarixi Turkiston» asarining muallifi Rossiya bosqiniga rus ma'muriyati pozitsiyasini yoqlab chiqsa ham, boshqa tomondan u asarining turli joylarida zamonasidagi adolatsizlik, ma'murlarning fe'l-atvorlarini tanqid qiladi. Dini va millatining rus ma'muriyati davrida tanazzulga duch kelganini qayg'u va alam bilan ta'kidlaydi, millatdoshlari orasida birlik va ittifoq yo'qligidan afsuslanadi, ma'naviy hayotning inqirozi, bilimsizlik va jaxolatdan qayg'uradi: "Turkiston xonlari vaqtida musulmoniyalar nihoyat darajada ahvoli olamdin xabarsiz bo'ldilar. Qadimgi haqqoniy ulamolardan oz asar qolib, xolis zuhdu taqvo bo'lmay, riyokor va xushomadgo'y ko'paymoqda edi. Zolim hokimlarga rost va to'g'ri so'zni aytadurg'onlar qolmay, zolimlar uchun besh-o'n tillo badaliga ertadin kechgacha xushomad so'zlar aytib, alar qanday so'z aytsa, ma'qul deydurg'onlar bo'lg'an ... Umaro va vuzaro va vukalolarningak- sari yo Eron asirlaridin va yoki yoshliqda bachcha bo'lub, bek va xon ko'targan befarosatlardan tayin bo'lur edi. Ilmu maorifda bo'lsa, Turkistonda o'tgan Ibn Sino, Forobiy, Ulug'bek, Ali Qushchi o'rniga o'lturg'on olim, faylasufi zamon deganlarimiz izzatu nafs va riyokorlikga tabdil bo'lub, jahl balosig'a muhtalo bo'lg'an edilar".

Mirzo Olim har kanday xalqning uyg'onishi ham, inqirozi ham axloqan ekanini yaxshi tushungan holda yozadi: «Xudovandi karim biror qavmini tag'yir utabdil qilmoqni xohlasa, avvalo ul qavmning axlok va atvorini tag'yiru tabdil qiladur. Bu so'zlar garchand durusht va achchig' so'zlar bo'lsa ham, lekin insof nazari ilan qaralsa, to'g'ri va rost so'zlardur». "Mirzo Olim Maxdum hoji ilm va ma'rifat tarafdori sifatida barcha yurtdoshlarini turli ilm va kasb-hunar o'rganishga, rivojlangan davlatlar kabi taraqqiyot sari intilishga da'vat etadi, "xuddi ilm va ilmsiz oxiratga yo'l topib bo'lmaydi. din, dunyo yo'llarini ta'lim va komilliksiz topib bo'lmaydi." , degan xulosaga keladi. Bu bilan "Turkiston tarixi" muallifining biz bilan hamfikr ekaniga aminmiz.

Ushbu «Tarixi Turkiston»ni yozgan vaqtimiz Rusiyalarning Toshkandni fath qilg'oniga 1915 yil 15 iyunda ellik yil tug'gan bayram (yubiley)ga to'g'ri kelgan sababdin musulmoniya asri ila ellik yil miyonasida farq va tafvutdin andak bayon



aylab, tarixning birinchi jildini tamom qildim. Xudovandi karim quvvat va iste'dod ato qilsa, ikkinchi jildiga shuru' qilamiz.³

“Oltin beshik” – Qo‘xon xonligida hukmronlik qilgan ming sulolaning kelib chiqishi haqidagi rivoyat. Unga ko‘ra, 1512-yilda Bobur Samarqanddan Farg‘ona orqali Hindistonga qochadi va yo‘lda Boburning xotinlaridan biri o‘g‘il tug‘adi. Qochqinlar chaqaloqni qarovsiz qoldirishga majbur bo‘lgan. Qimmatbaho taqinchoqlar solingan beshikka solib, sodiq xizmatkorlardan biriga berishadi. Chaqaloq taqdirini Boburga yetkazishi kerak edi. Bu vaqtda bu yerda qirq, qipchoq, qirg‘iz va ming urug‘li o‘zbeklar yashagan. Bu urug‘ vakillari bolakayni topib, unga “Oltin beshik” deb nom berishgan. Bolani ming urug'lik fermasiga joylashtirishdi. Oltin beshik balog‘atga yetganda, xalq unga har bir urug‘dan (qirq, qipchoq, qirg‘iz va ming) birdan qiz olishga ruxsat beradi. “Ming urug‘idan bo‘lgan katta xotin unga yolg‘iz o‘g‘il tug‘ib beradi. Unga Tangriyor deb nom qo‘yadilar, boshqacha qilib Xudoyor yoki Eloq Sulton deb atay boshlaydilar. Bobur asarlarida Oltin Beshik haqida hech narsa demagan, uning zamondoshlari ham uni tilga olmaydilar. Shuning uchun bu rivoyatni Qo‘qon xonlari o‘z shajaralarini Bobur bilan bog‘lash va o‘z hokimiyatlarini barqaror etish maqsadida to‘qishgan deb hisoblash mumkin. Rivoyatlarga ko‘ra, Oltin Beshik 1545-yil vafot etgan. Uning o‘g‘li Tangriyor keyinchalik Farg‘onaning hukmdori bo‘ladi, lekin xon emas, balki biy deb ataladi. Bu nom uning avlodlaridan to Olimxongacha berilgan.”⁴

Bu boladan Qo‘qon xonlari sulolasi (1710 – 1876) boshlanadi. Ya‘ni, Qo‘qon xonligi hukmdorlari Oltin Beshik shaxsi orqali Bobur avlodlari o‘laroq tarixda nom chiqaradilar. Qo‘qon xonligi tarixchilari Amiriy taxallusi bilan she‘rlar bitgan Qo‘qon xoni Umarxon (1810 – 1822) davridan boshlab mazkur afsonani o‘z tarixiy asarlarida keltirib, Qo‘qon xonlarini Bobur orqali Temuriylardan kelib chiqishini ta’kidlab o‘tganlar.⁵

Xuddi shu an‘anaga amal qilgan xolda Mulla Xoji ham “Tarixi Turkiston” asarining boshida ushbu afsonani berib o‘tgan. Asarda Shoxruhbiydan boshlab

³ Mirzo Olim Mahdum Hoji “Tarixi Turkiston” 2009 “Yangi asr avlodi” 165-bet.

⁴ Bobobekov H.N., Qo‘qon tarixi, T., 1976

⁵ Афондил Эркинов “Жахон адабиёти”, 2014 йил, 4-сон



Qo'qon xonlini boshqargan hukumdorlar birma-bir keltirilgan. Xususan, Shohruhbiy haqida muallif shunday deydi:

“Shohruxxonni avval martaba Xo‘qandga xonlik masnadiga o‘lturganligini tarixi hijriyda 1121/1709-10-nchi yili ekan. Bir shoir bul tarixni «Zi Shohrux jo‘» (Shohruxdan qidir) iboratidin topibdur. Xulosai kalom, Shohruxxon 12 yil xonlik qilib 13 -nchi yilda vafot qilibdur. Mashhur namangonlik Mashrabni piri Shayx mullo Bozor Oxund Namangoniy ul xonga hamasr ekanlar. Shohruxxondin uch o‘g‘ul tavallud topib, avvali Abdurahimbek, ikkinchi Abdulkarimbek, uchinchi Shodibekdur. Shohruxxonni vafotiga musannifi «Tarixi Shohruxiy»¹⁰ forsiy zaboni(tili)da shul tarifa mapux aytibdur:

Bayon qilg‘il ey Niyoziy, vafot yilini aniq,
Toki tarix oynasi zaigdin bo‘lsin tez zudo (toza).
Shul tariqa turk sultoni tarixin aylab bayon,
“Vaqli rihlat xon Shohrux bo‘ldi turklardin judo”⁶

Shohruxxon haqidagi ma’lumotlarning aksariyati Bozor Oxund tomonidan yozib qoldirilganligini Mirzo Olim qayt etib o‘tgan. Shohruxxondan keyin taxtga uning kata o‘gli Abdurahimxon taxtga o‘tiradi. Shohruhbiy vafot etgach, hijriy 1132 (milodiy 1721) yilning shavvol oyida (iyul) taxtga uning uch o‘g‘lidan biri Abdurahimbiy o‘tirdi. Nizomiddin Muhammad Abdurahimbiy hijriy 1110 (milodiy 1690) yili tug‘ilgan. Otasi davrida Namangan viloyati hokimi bo‘lib, Muhammad Bahodir ismli kishidan otalik qilgan. 1725-yilda Xo‘jandni Oq Bo‘tabiy qo‘lidan olib, bir yildan so‘ng O‘ratepani bosib olib, Qo‘qon davlatiga qo‘shib oladi. Muallif Abdurahimxonning faoliyati haqida ham birmuncha to‘xtalgan:

“Shohruxxon vafotidin keyin oning katta o‘g‘li Abdurahimxon oning o‘rniga xon bo‘lubdur. Mazkur Abdurahimxon hushyor, oqilu dono va sohibi tadbir ekan. Oning asrida Buxoroning hukmronlik ishlari benihoya zaif va bequvvat va besaronjom ilan, hukumatdorlik tadbir va maslahatlaridin bilkulli yiroq tushgan ekan. Bul vaqtni g‘animat fahmlab, Abdurahimxon o‘zbakiya va sartiylardin qariyib yigirma, o‘ttiz ming askar tartib aylab, Xo‘jand tarafiga azimat aylabdur.

⁶ Mirzo Olim Mahdum Hoji “Tarixi Turkiston” 2009 “Yangi asr avlodi” 48-bet.



Xo'jand shaxriga yetib, sahar vaqtida Xo'jand shahrini musaxxir qilib, Xo'jand hokimi Oqbo'tabiyni dastgir aylab, ul shaharning a'yoni va ashrofi viloyatlariga navozish va marhamatlar qilib, har qayulariga munosibi ahvol mansab berib, Xo'qand shahriga bozgasht qilibdur. Ikkinchi yil yangidin askar va qo'shin tartib etib O'ratepa shahriga borib, muhosara aylab, oni ham fath qilib, Qulika nomli O'ratepa hokimini dastgir aylab, fath va nusrat ilan Xo'qand shahriga qaytibdur. Va bir necha yildan keyin (1145/1732 yili) yanadin ko'p askar jam' aylab Samarkand tarafiga ravona bo'lub, andak fursatda Samarkand shahriga yetib, shaharga yaqin joyga ko'nub, shaharni muhosara qilibdur.”⁷

Shahrisabz hokimi Ibrohim Kenagas bilan qarindosh bo'lib, uning qiziga uylangan. Minglarning Kenagas urug'i bilan birlashishi 19-asrning 60-yillarigacha davom etgan. Ammo olti oy o'tmay, Buxoro xoni Abulfayzxon Samarqandni o'z tasarrufiga qaytardi. Abdurahimxon bundan xabar topgach, Qo'qondan Xo'jandga kelganida o'ldirilib, o'rniga Abdulkarimbiy ibn Shohruxbiy (1734-1750) xon bo'ldi. Bu haqida muallif asarida shunday deydi:

“Abdurahimxon vafotidin keyin Shohruxonning ikkinchi o'g'li Abdulkarimxonni Farg'ona taxtiga xonlik mansabiga o'tkuzubdurlar. Muddati olti yil xonlik masnadida hukmronlik qilgandin, so'ngra, avvalgi o'rda tor va tanglik qilib, alhol Xo'qandning Eski o'rda nomlik joyiga o'rdai rafi' va shahri vasi' bino aylab, atrof javonibiga qal'ai balant barpo aylab, bir necha darvoza ko'yubdurlar. Chunonchi, alhol mashhur darvozai Qatag'on va darvozai Marg'inon va darvozai Toshkandiyon va darvozai Haydarbek nom qo'yulgandur. Alhol mazkur darvozalar bu nomlar ila ma'lum va mashhurdir.”

1741-1745 yillarda Farg'ona jung'orlar hujumiga uchradi. Abdulkarimbiy qipchoq-qirg'izlar bilan va O'ratepa hokimi Fozilbi yuz yordamida jang qiladi. 1749 yilda Abdulkarimbiy qalmoqlar (jungorlar) bilan sulh tuzdi. Tinchlik shartlariga ko'ra, qalmoqlar o'z vatanlariga qaytgunlaricha qozoq dashtlarida yashash huquqiga ega bo'ladilar. Qo'qon xonligi davrida ularga o'troq xalq bilan savdo qilishga ruxsat berilgan. Qalmoqlar Qo'qon hududiga bostirib kirmaslik majburiyatini oladilar.

⁷ Mirzo Olim Mahdum Hoji “Tarixi Turkiston” 2009 “Yangi asr avlodi” 50-bet.



Ittifoq to'la ishonchli bo'lishi uchun jung-qalmoqlar Xo'g'andga shahzoda, Xo'g'anddan esa Bobobek ibn Abdulkarimbiy ko'chmanchilar o'troqligiga yuboriladi:

“Abdulkarimxonning xonlik zamonida Qaynar tarafdin qalmoqlar kelib, Xo'qandni muhosara qilganda, qalmoqdin ojiz kelib, sulh tariqasida Muhammadrahimxonning ulug' o'g'li Bobobek deganni oq uylik va garovdek qilinib, qalmoq ichiga yuborgan ekan. Abdulkarimxon vafotini qalmoqlar eshitib, Bobobekni Xo'qand tarafiga yuborib aytibdurkim: «Muhammad Rahimxonni ulug' o'g'li Bobobekdur, xonlik martabasi viloyati Bobobekka lozimdur». Bul xabarni eshitib, noiloj Bobobekni Xo'qandga xon ko'taribdurlar.”

“Lekin bir yil o'tmay Bobobek O'ratepa yurishi vaqtida Beshariqda qatl etiladi va Erdonabiy qayta Qo'qon taxtiga o'tiradi. Erdonabiy xonligi davrida muzokaralar olib borib, Xitoyning Qo'qon xonligiga va Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston - Qoshg'ar ishlariga daxl qilmasligi haqida shartnoma tuziladi va ancha muddat tinchlik o'rnatiladi. Erdonabiy davrida (1750-1762) Farg'ona to'rt viloyatga bo'linar edi. Bular: Andijon viloyati, Namangan viloyati, Chust va Qo'qon mulki. Qo'qon dor us-saltanat, ya'ni davlatning poytaxti edi. Erdonabiy Isfara va Xo'jandni mulklariga qayta qo'shib olib, 1754 yili O'ratepaga yurish qiladi, lekin shu yurishda mag'lub bo'ladi. Erdonabiy 1762 yili vafot qiladi. Urug'larning biy va oqsoqollari o'zaro maslahatlashib, Sulaymonxon ibn Shodibiy ibn Shohruxni taxtga kutarish xususida qaror qabul qilishadi”⁸. Ammo oradan bir necha oy o'tib taxtdan chetlatildi va Abdulhamidxon ibn Abdurahimxon “Norbotir” – Norbo'tabiy (1163-yilda, muharram oyining uchinchi kuni, 1749-yil 13-dekabrda tug'ilgan, 1213-yil, 1798-yilda vafot etgan) xonlik taxtiga o'tirdi:

“Hamma raoyo va baroyo oning hukmronligidin rozi va xursand ekanlar. Siyosatidin avfi g'olib bo'lub, avsofi hamida va axloqi pisandidasi ilan barcha dustu dushmani uziga mute' va munqod aylab, tinchlik va xotirjam'lik ilan o'n ikki yil hukmronlik qilib, oxir ba mazmuni «kuli shayun holik al-avjah» (bari narsalar halokatga mahkum) dori dunyoyi bevafo din dori uqboga safar qilibdur. Xoni

⁸ Тарихи жаҳоннамои, 229а-233бвар.



mutavaffoning vafoti tarixini musannifi «Tarixi Shohruxiy» Mullo Niyoz Muhammad, shul tarifa topibdur:

Ey Niyoziy, sen bugun xon Erdonadan,

Bu xushfe'l shohdan gapir.

Bu botir xonning vafot yili tarixini,

Xirad (aql)ga dedim: «men uchun ayt!»

Agar mendan xonning vafotini so'rasang,

«Az vafoti xon biguy»

«Vafoti xon biguy» xoni mutavaffoning vafotiga tarix tushubdur. (hijriy 1174 /1760-61 yili).

Vaqtiki Sulaymonxonni o'rtadin ko'tarib, vuzaro va umaro va xosu om ittifoqlik ilan Norbo'taxon ibn Abdurahmonxon ibn Abdulkarimxon ibn Shohruhxonkim, o'n to'rt yoshda ekan, Qoratepa mavzeidakim, alhol Muiy Muborak deb ataladur, o'shal mavzeda turgan joyidin Xo'qand shahriga kelturub, e'zoz ikrom ilan xonlik masnadiga o'lturg'uzubdurlar".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzo Olim Mahdum Hoji "Tarixi Turkiston" 2009 "Yangi asr avlodi" 255 bet
2. Ahmedov.B. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent, 2001 - yil 2. Muhammad
3. Alimova "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" "TDSHI" qo'llanma T. 2009. 7 b.
4. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. - T.: Sharq, 2000.
5. Madraimov, G. Fuzailova. Manbashunoslik .O'zb. Faylasuflar milliy jam. T. 2008, b 263
6. Sag'dullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.- Toshkent: Akademiya, 2006.
7. Tarixi Aliquli Amirilashkar. - Б. 137-184 б;
8. Макшеев А. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. - СПб, 1890. - С. 182-204.



9. Ивас Муҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамои. // Шарқ юлдузи. 8-с он. - Б. 56-6.
10. Бейсембиев Т. К. Тарихи Шахрухи как исторический источник. - Алматы, 198 bet
11. Мунтахаб ут-таворих № С 470. - Б. 651-653; 1985, - Б. 710-741;
12. Жангономайи Худоёрхоний, 56 вар
13. Турсунов Б. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қушин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари (XIX асрнинг 70 йилларигача). Тарих фан ном. дисс. Тошкент: ЎзФА Тарих институти, 2006.
14. Бартольд В. В. История Туркестана. Конспект лекций. Сочинения. Т. II. 1. - М., 1963.
15. “Мухторов А. М. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX веке. - Душанбе: Изд. АН Тадж.ССР, 1964.
16. Кузнецов В. С. Цинская империя на рубежах Центральной Азии. - Новосибирск, 1983
17. Бейсембиев Т. К. Тарихи Шахрухи как исторический источник. - Алматы, 1989.